

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2011-2012-O‘QUV YILIDA UMUMIY
O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING
7,8-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
KIMYO, HORIJY TIL, FIZIKA,
RUS TILI, INFORMATIKA,
GEOGRAFIYA, DAVLAT VA HUQUQ
ASOSLARI, BIOLOGIYA FANLARIDAN
BOSQICHLI IMTIHON MATERIALLARI
VA METODIK TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

**G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2012**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon-biletlariga 15-20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

KIMYO

G.Shoisaeva – Respublika ta'lim markazi tabiiy va aniq fanlar bo'limi bosh metodisti.

HORIJIY TIL

X.Toirova – RTM xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti;

I.Matniyozova – RTM xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti;

N.Mirzaboyeva – RTM xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti.

FIZIKA

Z.Sangirova – RTM «Tabiiy va aniq fanlar» bo'limi bosh metodisti.

RUS TILI

U.Yaminova – RTM xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti.

INFORMATIKA

B.Boltayev – RTM ta'lim jarayonini axborotlashtirish bo'limi bosh metodisti;

S.Xafizov – RTM ta'lim jarayonini axborotlashtirish bo'limi boshligi.

GEOGRAFIYA

E.Nazaraliyeva – RTM «Tabiiy va aniq fanlar» bo'limi bosh metodisti.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

A.Nurqulov – RTM bo'limi boshlig'i.

BIOLOGIYA

I.Safarboyev – RTM «Tabiiy va aniq fanlar» bo'limi bosh metodisti;

B.Raximova – Yunusobod tumanidagi 105-maktabning biologiya fani o'qituvchisi.

Nashr uchun mas'ul

N.Sh.Turdiyev

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.

7-SINF

KIMYO

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida kimyo fani 7-sinf dan boshlab o'qitiladi. O'quvchilar mazkur sinfda kimyodan boshlang'ich bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi hamda 4,5,6-sinflarda botanika, fizika, geografiya fanlaridan o'rganilgan bilimlarni kimyoviy jihatlarini mustahkamlaydilar.

7-sinf o'quvchisining o'quv yili davomida kimyo fanidan olgan bilim, ko'nikma, malakasini aniqlash hamda ularni mazkur fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida bosqichli nazorat otkazish maqsadga muvofiqdir.

Shunga ko'ra, 2011-2012 o'quv yili yakunida 7-sinf o'quvchilari kimyo fanidan bosqichli imtihon topshiradilar. Imtihon-bilet savollariga og'zaki javob berish usulida o'tkaziladi.

Biletlar kimyo o'quv dasturi asosida 7-sinfda o'rganilgan BKMLar yuzadidan tuzilgan. Bunda-biletlar soni 25 ta bo'lib, har bir-biletga 3 tadan savol va topshiriqlar berilgan. Birinchi va ikkinchi savol nazariy, uchinchi savol esa amaliy laboratoriya ishini bajarish yoki masala, mashlar yechish bo'yicha topshiriqlardan iborat bo'ladi.

Birinchi va ikkinchi nazariy savol asosida kimyo fanining vazifalari, rivojlanish tarixi, kimyogarlarning kimyo fanini rivoji uchun olib borgan va olib borayotgan ishlari, anorganik kimyodan dastlabki tushunchalar; kimyoviy element, kimyoviy belgi, atomlarning o'lchami, nisbiy va absolyut massa, kimyoviy moddalar va ularning xossalari, kimyoning asosiy qonuniyatlari, kimyoviy reaksiyalarning turlari, kislorod, vodorod, suv va eritmalar, anorganik moddalarning eng muhim sinflari va ularning o'zaro bog'liqligi haqidagi bilimlari, uchinchi savolda esa o'tilgan mavzular asosidagi masala va mashqlarni bajarish orqali ko'nikma va malakalari aniqlanadi.

Nazariy savolda o'quvchilar mavzularda berilgan qonunlarning ta'rifi, moddalarning formulasi, ularning hosil qilgan birikmalari, xossalari, tabiatda tarqalishi, ishlatilish sohaslarini hamda ularga tegishli reaksiya tenglamalarini to'g'ri ifodalashlari zarur. Masala va mashqlarni bajarish yoki laboratoriyada ishlash qoidalari, undagi jihozlardan foydalanish ko'nikmalari asosida ularni to'liq tushuntirib berishlari talab etiladi.

O'quvchilarni quyidagi mezonlar asosida baholanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblarni quyidagicha baholash mumkin

№	Baholash mezonlari	Ball
1	O'quvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlar, ular asosida o'rganiladigan tegishli element va birikmalarning formulasini, valentligini, nomini, uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalari hamda, tabiatda uchrashi, ishlatilish sohasini, ahamiyatini aniq, bexato izohlab bersa	5
2	O'quvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlar, ulardagi tegishli element va birikmalarning formulasini, valentligini, nomini, uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalari hamda, tabiatda uchrashini aniq ifodalab, lekin ishlatilish sohasini izohlashda chalkashlikka yo'l qo'ysa	4
3	O'quvchi kimyoviy modda va birikmalarning formulasini, valentligini, nomini, hamda, tabiatda uchrashi, ishlatilish sohasini aniq, bexato izohlab, lekin uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalarida xatoga yo'l qo'ysa	3
4	O'quvchi kimyoviy elementlar va birikmalarning tabiatda uchrashi, ishlatilish sohasi haqida ma'lumotga ega bo'lsa-yu, lekin uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalarini bilmasa, tegishli modda va birikmalarning formulasini noto'g'ri yozsa	2
5	O'quvchi kimyoviy elementlar va birikmalarning tabiatda uchrashi, fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalarini, formulasini bilmasa, faqatgina mazkur jarayonga tegishli element yoki birikmani ishlatilish sohasi haqida qisman bilsa	1


Masala va mashqlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Masalani berilish sharti, tegishli formulalar, reaksiya tenglamalari to'g'ri va aniq yozilgan, eng qulay yo'l bilan mantiqiy fikrlab yechilgan, matematik hisoblashlarda xatolarga yo'l qo'yilmagan, yoki berilgan mashqni bajarishda tegishli elementlar, birikmalar formulasini, reaksiya tenglamasi bexato, mashqni bajarish uchun zaruriy shartlari to'liq bajarilgan bo'lsa	5
2	Masalani berilish sharti, tegishli formulalar, reaksiya tenglamalari to'g'ri va aniq yozilgan, ammo masala noqulay yo'l bilan yechilgan bo'lsa, yoki berilgan mashqni bajarishda tegishli elementlar, birikmalar formulasini, reaksiya tenglamasi bexato, mashqni bajarish uchun zaruriy shartlari to'liq bajarilmagan bo'lsa	4
3	Masalani berilish sharti aniq yozilmagan, tegishli formulalar, reaksiya tenglamalari xato yozilgan, yechilishida javob to'g'ri emas, matematik hisoblashlarda xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki berilgan mashqni bajarishda tegishli elementlar, birikmalar formulasini, reaksiya tenglamasi xato, mashqni bajarish uchun zaruriy shartlari bajarilmagan bo'lsa	3

№	Baholash mezonlari	Ball
4	Masalani faqatgina berilish sharti yozilgan, tegishli formulalar, reaksiya tenglamalari yozilmagan, yoki berilgan mashqni bajarishda faqatgina tegishli elementlar, birikmalar formulasidan bir yoki ikkitasi yozilgan bo'lsa	2
5	Masalani faqatgina berilish shartini yozish uchun harakat qilingan, masalani yechish uchun boshqa amallar bajarilmagan bo'lsa, yoki berilgan mashqni bajarish uchun faqatgina tegishli elementlar, birikmalar formulasidan bir yoki ikkitasini yozishga harakat qilingan bo'lsa	1


1-BILET

1. Tuzlarning tarkibi, tuzilishi va nomlanishi.
2. Kislorodning olinishi va uning fizik xossalari, katalizatorlar haqida tushuncha, ozon.
3. Quyida keltirilgan reaksiyalarni tugallang, tenglashtiring va kimyoviy reaksiyalarning qaysi turiga tegishli ekanligini aniqlang.



2-BILET

1. Kislorodning tabiatda aylanishi, havo va uning tarkibi. Havoni ifloslanishdan saqlash.
2. Eng muhim tuzlarning ishlatilishi.
3. Elementlarning valentligi asosida kimyoviy reaksiya tenglamalarini tugallang:



3-BILET

1. Modda va uning xossalari.
2. O'zbekiston kimyogar olimlarining kimyo faniga qo'shgan hissalarini.
3. Mis (I), temir (III), volfram (VI), temir (II), uglerod (IV), oltingugurt (VI) oksidlarining formulalarini yozing.

4-BILET

1. Oddiy va murakkab moddalar.
2. Eng muhim kislotalarning ishlatilishi.
3. Quyidagi keltirilgan oksidlarning nomlarini yozing:

№	Formulasi	Nomlanishi
1	Na ₂ O	
2	N ₂ O ₅	
3	SiO ₂	
4	CaO	
5	CrO	
6	CuO	
7	FeO	
8	SO ₂	


5-BILET

1. Kislotalarning toifalanishi.
2. Eritmalar va ularning konsentrasiyalari.
3. Jadvalni to'lsiring.

Bir negizli kislota	Ikki negizli kislota	Uch negizli kislota	Ko'p negizli kislota

6-BILET

1. Vodorodning formulasi va molyar massasi, fizik va kimyoviy xossalari.
2. Kislotalarning olinishi va xossalari.
3. Elementlarning valentligi asosida kimyoviy reaksiya tenglamalarini tugallang.



7-BILET

1. Kimyoviy reaksiyalarning turlari: birikish, patchalanish, o'rin olish va almashinish.
2. Moddaning agregat holatlari.

3. Quyida keltirilgan sxema asosidagi reaksiya tenglamalarini tugallang:
 $\text{Li} + \dots \rightarrow \text{Li}_2\text{O}$
 $\text{Ca} + \dots \rightarrow \text{CaO}$
 $\text{Na} + \dots \rightarrow \text{NaCl}$

8-BILET

1. Asoslarning toifalanishi.
2. Suv, uning elementar tarkibi, molekulyar tuzilishi, formulasi va molyar massasi.
3. Kimyo xonasida jihozlar bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalari haqida tushuntiring.

9-BILET

1. Kimyo fani va uning vazifalari. Fan sifatida rivojlanish tarixi.
 2. Asoslarning olinishi va xossalari.
 3. Quyida keltirilgan kimyoviy elementlarga mos gidroksidlarini tanlang.
- | Element | Gidroksid formulasi |
|---------|---------------------|
| 1) Ca | 1) OH |
| 2) Bi | 2) OH_3 |
| 3) Na | 3) OH_4 |
| | 4) OH_2 |

Ca	Bi	Na

10-BILET

1. Asoslarning tarkibi, tuzilishi va nomlanishi.
2. Suvning fizik va kimyoviy xossalari.
3. Quyidagi aralashmalarni qanday ajratish mumkin:
 1) osh tuzi bilan qum;
 2) oltingugurt kukuni va shakar;
 3) yog'och qi'pig'i vatemir qirindisi.

11-BILET

1. Kislородning kimyoviy xossalari. Biologik ahamiyati va ishlatilishi.
2. Sof modda va aralashmalar.
3. 4 g mis (II)-oksid hosil bo'lishida mis bilan reaksiyaga kirishgan kislородni massasi va miqdorini hisoblang.

12-BILET

1. Vodorod. Vodorodning olinishi.
2. Eng muhim tuzlarning ishlatilishini tushuntiring.

3. Quyidagi formulalardagi elementlarni valentligini aniqlang: HgO, K₂S, B₂O₃, ZnO, MnO₂, Cu₂O, SnO₂, SO₃.

13-BILET

- Oksidlarning olinishi va xossalari.
- Tuzlarning olinishi va xossalari.
- Quyidagi birikmalarning harorat ta'sirida parchalanish reaksiya tenglamalarini yozing: a) mis (II)-gidroksid, b) temir (III)-gidroksid, v) alyuminiy (III)-gidroksid.

14-BILET

- Tuzlarning toifalanishi.
- Avogadro qonuni. Molyar hajm.
- Quyidagi berilgan formulalarni valentlik asosida to'g'ri yozing:
I II V IV I III VII II III II IV
 LiO, BaO, PO, SnO, KO, PH, MnO, FeO, BO, HS, NO.

15-BILET

- Massaning saqlanish qonuni.
- Eng muhim asoslarning ishlatilishi.
- Quyidagi birikmalarning nisbiy molekulyar massasini hisoblang: a) temir (III)-oksid, b) fosfor (V)-oksid, v) marganes (VII)-oksid.

16-BILET

- Tuzlarning tarkibi, ruzilishi va nomlanishi.
- Atom-molekulyar ta'limot. Atom va molekularning mavjudligi. Kimyoviy element, kimyoviy belgi.
- Quyidagi keltirilgan oksidlarning hosil bo'lish reaksiya tenglamalarini yozing: Al₂O₃, CaO, P₂O₅.

17-BILET

- Oksidlar, asoslar, kislotalar va tuzlarning o'zaro genetik bog'lanishi.
- Kislotalarning tarkibi, tuzilishi va nomlanishi.
- Laboratoriya shtativi yordamida uning tuzilishi va ishlatilishini tushintiring.

18-BILET

- Ekvivalentlik qonuni.
- Kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik. Indekslar haqida tushuncha
- Quyidagi sxema asosida kimyoviy reaksiya tenglamalarini yozing:
 Ca → CaO → Ca(OH)₂.

19-BILET

- Moddalarning xossalari. Fizik va kimyoviy o'zgarishlar.

2. Oksidlarning toifalanishi.

3. Quyida keltirilgan jadvalni to'ldiring. Har bir bo'limga tegishli kislota formulasini yozing.

№	Kislotalar				
	Kislorodli kislota	Kislorodsiz kislota	Bir negizli kislota	Ikki negizli kislota	Uch negizli kislota
1					
2					
3					

20-BILET

- Eritmalar va ularning konsentrasiyalari.
- Tuzlar formulalarining ifodalanishi.
- Quyidagi sxema asosida kimyoviy reaksiya tenglamalarini yozing:
 Cu → CuO → CuSO₄.

21-BILET

- Yonish. Yoqilg'ilarning turlari.
- Tuzlarning kimyoviy xossalari.
- Quyida keltirilgan sxema asosidagi reaksiya tenglamalarini tugallang:
 Al + ... → Al₂O₃
 C + ... → CO₂
 K + ... → K₂O

22-BILET

- Atomlarning o'lchamlari. Nisbiy va absolyut massa.
- Eng muhim oksidlarning ishlatilishi.
- 4,5 g alyuminiy va oltingugurtning ta'sirlashuvidan (2Al + 3S → Al₂S₃) hosil bo'lgan alyuminiy sulfidning massasi va miqdorini aniqlang.

23-BILET

- Eritmada erigan moddaning massa ulushi, foiz konsentrasiyasi, molyar va normal konsentrasiyasi
- Tarkibning doimiylik qonuni.
- Quyidagi sxema asosida kimyoviy reaksiya tenglamalarini yozing:
 P → P₂O₅ → H₃PO₄.

24-BILET

- Suvning tabiatda tarqalishi, uning tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati. Sanoatda ishlatilishi.

2. Kislotalar haqida dastlabki tushunchalar.
3. Suvni boshqa birikmalar bilan reaksiyaga kirishishidan, masalan: a) kislota, b) ishqor, v) ishqor va suv hosil bo'lish reaksiyalarini va hosil bo'lgan moddalarni tagiga nomini yozing.

25-BILET

1. Oddiy va murakkab moddalar.
2. Suv havzalarini ifloslanishdan saqlash choralari. Suvni tozalash usullari.
3. Ishqorlarni kimyoviy xossalari tegishli uchta reaksiya tenglamasini tuzing.

Xorijiy (ingliz, fransuz va nemis) tili fanlaridan 7-sinflarda bosqichli nazorat imtihonlarini o'tkazish uchun materiallar va metodik tavsiyalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun xorijiy tillardan bosqichli nazorat imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi. Bosqichli nazorat imtihonlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning xorijiy til ta'limi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli nazorat imtihonlarini o'tkazishda o'quv dasturlari asosida 25 ta bilet tuzilib har bir biletida 2 tadan savol beriladi. Xorijiy tillar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar va maktablar uchun qo'shimcha uchinchi topshiriq beriladi.

Birinchi savol biletlarda berilgan mavzu bo'yicha matnni o'qish va mazmunini gapirib berish. Bunda o'quvchi matnni o'qib uning mazmunini xorijiy tilda tushintirib berishi kerak. Ikkita savolga tayyorgarlik uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Matn hajmi 200 so'zdan iborat bo'lishi lozim. Biletlarda berilgan mavzular bo'yicha matnlarni darsliklar va qo'shimcha adabiyotlardan olish mumkin.

Masalan matn quyidagicha bo'lishi mumkin:

Les saisons de l'année

Dans une année il y a 12 mois, 4 saison, 365 ou 366 jours. Les saisons de l'année sont : l'hiver, le printemps, l'été, l'automne. Dans chaque saison il y a 3 mois. Les mois de l'hiver sont : décembre, janvier, février. Les mois du printemps sont: mars, avril, mai. Les mois d'été sont : juin, juillet, août. Les mois de l'automne sont: septembre, octobre, novembre. Dans chaque mois il y a 30 ou 31 jours. Seul le mois de février a 28 ou 29 jours. Chaque mois comprend 4 semaines et dans la semaine il y a 7 jours. Les jours de la semaine sont: lundi, mardi, mercredi, jeudi, vendredi, samedi, dimanche.

Chaque année a quatre saisons: le printemps, l'été, l'automne et l'hiver. Chaque saison a ses charmes.

Le printemps est la plus belle saison de l'année. Les jours deviennent plus longs et les nuits plus courtes. L'herbe pousse. On vend des premières fleurs de printemps. Au mois de mai le printemps touche à sa fin.

Nous sommes en été. C'est la plus chaude saison de l'année. Le soleil brille.

En été les fruits mûrissent. On commence la moisson et la récolte des fruits et des légumes. Les enfants et les étudiants ont les grandes vacances.

Nous sommes en automne. C'est la rentrée. Les enfants et les étudiants recommencent leurs études.

Il ne fait plus aussi chaud qu'en été peu à peu les feuilles jaunissent et rougissent. Il pleut assez souvent. On récolte les fruits et les légumes tardifs.

En Ouzbékistan la récolte du coton bat son plein. En novembre il neige, et le vent souffle.

C'est l'hiver la plus froide saison de l'année. Les jours sont les plus courts de l'année. La neige couvre la terre. Toutes les saisons de l'année sont très belles et magnifiques. Quant à moi, je préfère le printemps. Le printemps est une saison fantastique et magique.

Ushbu matn 200 soʻzdan iborat. Bunda oʻquvchi : «5» ball olishi uchun ushbu matn maʼnosini 10 tadan kam boʻlmagan gaplar orqali tushuntirib berishi kerak.

Oʻquvchilarning olgan bilim, koʻnikma va malakalarini baholash uchun matn maʼnosini tushuntirib berishda ishlatgan gaplari soni hisobga olinadi. Gaplar grammatik va fonetik qoidalar asosida toʻgʻri va toʻliq, mavzudan chetlashmagan va mantiqan bir-biri bilan bogʻlangan boʻlishi kerak.

Ikkinchi savol biletlarda koʻrsatilgan mavzular yuzasidan suhbatlashish. Bunda oʻquvchi shu mavzu yuzasidan oʻz qiziqishlari va fikrlarini xorijiy tilda erkin bayon etishi kerak. Oʻquvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilganligi, fonetik jihatdan toʻgʻri talaffuz etilganligi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bogʻliqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda soʻz birikmalarining notoʻgʻri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari bir gapning oʻzida ikki va undan ortiq kuzatilsa, oʻsha gap hisobga olinmaydi. Oʻquvchi mavzuni yoritib bera olmasa oʻqituvchi oʻquvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi.

Masalan: 1-savolga – 3 ball, 2-savolga – 5 ball qoʻyilsa, baholar umumlashtirilib, oʻrtacha ball chiqariladi. $3+5=8 : 2=4$ ball

Oʻquvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

Berilgan matnni oʻqib, mazmunini gapirib berish yuzasidan baholash mezon

No	Baholash mezon	Ball
1	Oʻqilgan matn mazmunini toʻliq ogʻzaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda toʻgʻri talaffuz va intonatsia bilan gapirsa, oʻqilgan matnni toʻliq tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga toʻliq javob bera olsa	5
2	Oʻqilgan matn mazmunini qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirilsa, toʻgʻri talaffuz va intonatsia buzilsa, oʻqilgan matnni 71–85 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olsa	4
3	Oʻqilgan matn mazmunini qisman qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, oʻqilgan matnni 55–70 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga qisman javob bera olsa	3

No	Baholash mezon	Ball
4	Oʻqilgan matn mazmunini tushunarsiz tarzda bayon qilsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, oʻqilgan matnni 21–54 foiz tarjima qila olsa, matn mazmuniga doir savollarga toʻliq javob bera olmasa	2
5	Oʻqilgan matn mazmunini bir-biri bilab bogʻlanmagan jumlar bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, oʻqilgan matnni tarjima qila olmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

Baholash mezon

No	Baholash mezon	Ball
1	Berilgan mavzuni toʻliq ogʻzaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, hamda toʻgʻri talaffuz va intonatsia bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga toʻliq javob bera olsa	5
2	Berilgan mavzuni qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirilsa, toʻgʻri talaffuz va intonatsia buzilsa, berilgan mavzuga doir savollarga qiyinchilik bilan javob bera olsa	4
3	Berilgan mavzuni qisman qiyinchilik bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, berilgan mavzuga doir savollarga qisman javob bera olsa	3
4	Berilgan mavzuni tushunarsiz tarzda bayon qila olsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, berilgan mavzu mazmuniga doir savollarga tushunarsiz tarzda javob bera olsa	2
5	Berilgan mavzunibir-biri bilab bogʻlanmagan jumlar bilan ogʻzaki bayon qila olsa, fikr bildirsa olmasa, toʻgʻri talaffuz va intonatsiaga rioya qilmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa	1

7-SINFAR UCHUN XORIJIY (INGLIZ, FRANSUZ VA NEMIS) TILI FANIDAN BOSQICHLI NAZORAT IMTIHON SAVOLLARI

1-BILET

1. «Oʻzbekistonning qadimiy shaharlari» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening tarjimai holim» mavzusida suhbat qilish

2-BILET

1. «Oila» mavzusiga oid matnni oʻqish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening doʻstim» mavzusida suhbat qilish

3-BILET

1. O'zbek milliy taomlari mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Mening oilam» mavzusida suhbat qilish

4-BILET

1. «Yil fasllari» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Yozgi sport o'yinlari» mavzusida suhbat qilish

5-BILET

1. Uy hayvonlari mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men yoqtirgan fasl» mavzusida suhbat qilish

6-BILET

1. Sport turlari mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bizning maktab» mavzusida suhbat qilish.

7-BILET

1. « Supermarketda» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. « Tili o'rganilayotgan mamlakat poytaxti» mavzusida suhbat qilish

8-BILET

1. Qishki sport turlari mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O'quv qurollari» mavzusida suhbat qilish

9-BILET

1. Shahar (qishlog) mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Uy hayvonlari» mavzusida suhbat qilish

10-BILET

1. Sevimli mashg'uloti mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish
2. «Orzuimdagi uy» mavzusida suhbat qilish

11-BILET

1. Moda mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Yilning to'rt fasli» mavzusida suhbat qilish

12-BILET

1. Tili o'rganilayotgan mamlakatning poytaxtiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish
2. «O'quv qurollari» mavzusida suhbat qilish

13-BILET

1. Yozgi ta'tilga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Shifokor huzurida» mavzusida suhbat qilish

14-BILET

1. Yovvoyi hayvonlar mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O'zim haqimda» mavzusida suhbat qilish

15-BILET

1. Do'sti haqidagi mavzuga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men yoqtirgan» fan mavzusida suhbat qilish

16-BILET

1. Salomatlik mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Bozorda» mavzusida suhbat qilish

17-BILET

1. Do'sti haqidagi mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Toshkent» mavzusida suhbat qilish

18-BILET

1. O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risidagi mavzuga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Yurtimizning diqqatga sazovor joylari» mavzusida suhbat qilish.

19-BILET

1. «O'zbek xalqining milliy kiyimlari» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Respublikamizda o'tkazilayotgan sport musobaqalari» mavzusida suhbat qilish

20-BILET

1. Mamlakatimiz poytaxti mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men yoqtirgan sportchi» mavzusida suhbat qilish.

21-BILET

1. «Sayohat» mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Tili o'rganilayotgan mamlakat shaxarlari» haqida suhbat qilish.

22-BILET

1. Tili o'rganilayotgan mamlakat mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Uy-ro'zg'op ishlari» haqida suhbat qilish.

23-BILET

1. Mamlakatimizning daryo, ko'l, dengizlari mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Oziq-ovqat do'konida» mavzusida suhbat qilish

24-BILET

1. Maktab binosi va hovlisi mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «O'zi yashayotgan shahar (qishloq)» mavzusida suhbat qilish.

25-BILET

1. Mamlakatimizning ma'muriy bo'linishi mavzusiga oid matnni o'qish va mazmunini gapirib berish.
2. «Men tug'ilgan kun» mavzusida suhbat qilish.

FIZIKA

2011-2012 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfini tugatgan o'quvchilarning fizika fanidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat -bilet savollari shaklida yozma o'tkaziladi. Yozma ish uchun 120 minut vaqt beriladi.

Bosqichli nazorat savollari fizika fanidan 6,7-sinflar bo'yicha optimallashtirilgan DTS va o'quv dasturlari asosida tuzilgan bo'lib, 1 ta-biletida 3 tadan topshiriq berilgan.

Har bir o'quvchiga 2 ta nazariy 1 ta masala beriladi. Birinchi nazariy savol 6-sinfda, 2-nazariy savol 7-sinfda olgan bilimlarini, 3-topshiriq esa o'quvchilarning 6-7-sinflarda egallagan ko'nikma va malakalarini aniqlaydi.

Bosqichli nazorat ishlarini muvaffaqiyatli topshirish uchun o'quvchi 6-7-sinflar bo'yicha fizika fanidan DTS va o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq egallashlari lozim.

O'quvchilar mavzularda berilgan qonunlarning ta'rifi, formulalari, birliklari, ularning amaliyotda qo'llanilishini misollar orqali tushuntirishlari lozim.

Bosqichli nazoratning har bir savoli «5» ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib, o'rtacha ball chiqariladi.

Masalan: $5+4+3=12:3=4$. O'quvchilar quyidagi mezon orqali baholanadi.

Nazariy savollar quyidagicha baholanadi:

№	Baholash mezon	Ball
1	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, ularni hisoblash formulalarini, birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa	5
2	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik ma'nosini to'la ochib, asosiy tushunchalar va fizik kattaliklarni keltirib chiqarishda juziy xatoliklarga yo'l qo'ysa	4
3	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik ma'nosini ochib, formulalarni, birliklarini yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa	3
4	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini qisman ochib, keltirilgan formulalarda, birliklarda xatoliklar bo'lsa	2
5	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni ochib bera olmasa, ba'zi formulalarni yozib ko'rsata olsa	1

Masala yechish quyidagi mezon bilan baholanadi:

No	Baholash mezoni	Ball
1	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani, to'g'ri yechsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmalar to'g'ri chizilgan bo'lsa, fizik kattaliklar va ularning birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa	5
2	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani to'g'ri yechsa, fizik kattaliklarning birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmani chizishda juziy kamchilikka yo'l qo'ysa	4
3	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani yechishda xatolikka yo'l qo'ysa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizma noto'g'ri chizilgan, fizik kattaliklarni belgilashda xatoliklarga yo'l qo'ysa	3
4	O'quvchi masalani yechish uchun fizik kattaliklarni, formulani yozgan, masalani yechishga harakat qilingan, fizik kattaliklar birligini umuman keltirib chiqarmasa	2
5	O'quvchi masala shartida berilgan fizik kattaliklarni yozgan, masalani umuman yechmagan bo'lsa	1

1-BILET

1. Modda tuzilishi haqida qadimgi olimlar va vatandoshlarimiz Al-Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sino ta'limotlari.
2. Nyutonning birinchi qonuni.
3. Chang'ichi $0,3 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan harakatlanib, uzunligi 100 m bo'lgan qiyalikni 20 s ichida o'tdi. Chang'ichining qiyalik boshi va oxiridagi tezliklari qanday?

2-BILET

1. Qattiq jism, suyuqlik va gazlarning molekular tuzilishi. Diffuziya hodisasi.
2. Mexanik energiyaning saqlanish va aylanish qonuni.
3. Massasi 50 kg bo'lgan bola chanada tepalikdan sirpanib tushib, gorizontol yo'lda to'xtaguniga qadar 20 m masofani 10 s ichida o'tdi. Ishqalanish kuchi va ishqalanish ko'effitsientini toping.

3-BILET

1. Jismlarning mexanik harakati. Trayektoriya. Jismlarning bosib o'tgan yo'li va unga ketgan vaqt, birliklari.
2. Kuch impulsi va jism impulsi. Impulsning saqlanish qonuni.
3. Massasi 120 kg bo'lgan jismni qo'zg'almas blok yordamida 5 m balandlikka ko'tarish uchun bajarilgan ishni hisoblab toping, agar foydali ish ko'effitsienti 70% ga teng bo'lsa.

4-BILET

1. Tekis va notekis harakat. Tezlik va uning birliklari.
2. Yerning sun'iy yo'ldoshlari.
3. Agar reaktiv samolyot dvigateling tortishish kuchi 95 kN bo'lsa, massasi 62 t bo'lgan samolyot tezlik olish vaqtida qanday tezlanish bilan harakatlangan?

5-BILET

1. Zichlik va uning birliklari.
2. Yerning tortishish kuchi ta'sirida jismlarning harakati. Birinchi kosmik tezlik.
3. Tezligi 5 m/s bo'lgan 25 kg massali jism ishqalanish kuchi ta'sirida 25 m yo'l yurib to'xtadi. Ishqalanish kuchi necha nyutonga teng?

6-BILET

1. Jismlarning o'zaro ta'siri. Kuch.
2. Yuklama va vaznsizlik.
3. Jism 2 m radiusli aylana bo'ylab 9 m/s^2 markazga intilma tezlanish bilan harakatlanmoqda. Uning aylanish chastotasi qanday?

7-BILET

1. Bosim va uning birliklari. Paskal qonuni.
2. Aylanma tekis harakatda, chiziqli va burchakli tezlik, tezlanish.
3. Velosipedchi qiyalikdan pastga qarab $0,3 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan harakatlanmoqda. Agar velosipedchining boshlang'ich tezligi 4 m/s bo'lsa, 18 s dan so'ng uning tezligi qanchaga yetadi?

8-BILET

1. Atmosfera bosimi. Torrichelli tajribasi.
2. Nyutonning ikkinchi qonuni.
3. Agar g'ishtning zichligi 2500 kg/m^3 ga, kerosinniki esa 900 kg/m^3 ga teng bo'lsa, 4 kg massali g'ishtning kerosindagi vazni (og'irligi) qanday bo'ladi?

9-BILET

1. Arximed qonuni.
2. Kinematikaning asosiy tushunchalari (moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l va ko'chish, ilgarilanma harakat)
3. Tezligi 0,3 m/s, massasi 30 tonna bo'lgan vagon tezligi 0,2 m/s, massasi 20 tonna bo'lgan vagonni quvib yetdi va unga ulanib qoldi. Vagonlarning birgalikdagi tezligi necha m/s ga teng?

10-BILET

1. Energiya va uning turlari.
2. Jismlarning harakati. Fazo va vaqt.

3. 800 g massali yuk ta'sirida prujina 2 sm cho'zildi. Prujinaning bikrligi qanday?

11-BILET

1. Jismlarni massa markazi va uni aniqlash. Muvozanat turlari.
2. To'g'ri chiziqli tekis harakat. Notekis harakatda tezlik.
3. Fokus masofasi 20 sm bo'lgan linzaning optik kuchi qancha? Fokus masofasi 10 sm bo'lgan linzaniki-chi?

12-BILET

1. Kuch momenti. Richag va uning muvozanat sharti.
2. Nyutonning uchinchi qonuni.
3. Gidravlik press kichik porsheniga 20 N kuch ta'sir ettirilganda, katta porshendan 160 N kuch olindi. Agar katta porshen yuzasi 80 sm² bo'lsa, kichik porshen yuzasi nimaga teng?

13-BILET

1. Oddiy mexanizmlar (blok, qiya tekislik, vint, pona, chig'iriy).
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l.
3. Suvli menzurkaga jism tushirilganda bir qismi botgan holda suzib yurdi. Bunda suv sathi 10 sm² bo'limdan 110 sm² bo'limga ko'tarildi. Jism massasi nimaga teng?

14-BILET

1. Mexanizmlarning FIK. Mexanikaning oltin qoidasi.
2. Butun olam tortishish qonuni.
3. Ochiq idish to'la suvi bilan 500 g massaga ega. Unga 300 g metall bo'lagi tashlandi, natijada massasi 700 g bo'lib qoldi. Metallning zichligi qanday?

15-BILET

1. Issiqlik manbalari. Jismlarning issiqlikdan kengayishi.
2. Jismning og'irligi. Og'irlik kuchi.
3. Yuk ko'taradigan mashina dvigatelining quvvati 4 kW. U 2 minutda 15 m balandlikka qanday yukni ko'tarish mumkin?

16-BILET

1. Qattiq jism, suyuqlik va gazlarda issiqlik uzatilishi. Konveksiya. Nurlanish.
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda tezlanish.
3. Kerosin bilan to'ldirilgan bakning yon tomonida yuzi 20 sm² bo'lgan teshik bor. Teshikning markazi kerosin sathidan 3 m pastda. Teshik tiqin bilan mahkamlab qo'yilgan. Tiqinga ta'sir etuvchi gidrostatik bosim kuchi qanday? Kerosin zichligi 800 kg/m³.

17-BILET

1. Temperatura. Termometr. Jismning temperaturasini o'lchash.
2. Elastiklik kuchi. Guk qonuni.
3. Jism 40 m/s tezlik bilan yuqoriga otildi. U 5 s davomida qanday yo'l o'tadi?

18-BILET

1. Ichki yonuv dvigatellari. Bug' trubinasi.
2. Mexanik ish va uning birligi.
3. Jism noma'lum radiusli aylana bo'ylab 2 m/s tezlik va 5 rad/s burchak tezlik bilan harakatlanmoqda. Uning markazga intilma tezlanishini aniqlang.

19-BILET

1. Ichki energiya va uni o'zgartirish usullari.
2. Ishqalanish kuchi. Tinchlikdagi ishqalanish.
3. Mashina dastlab 3 minut ichida 36 km/soat tezlik bilan, keyin 5 minut davomida 54 km/soat tezlik bilan, so'ngra 10 minut ichida 72 km/soat tezlik bilan harakatlanadi. Mashinaning o'rtacha tezligini toping.

20-BILET

1. Yorug'lik manbalari. Quyosh va Oy tutilishi.
2. Reaktiv harakat. Raketaning tuzilishi.
3. Velosipedchi dastlabki 5 s da 50 m, keyingi 10 s da 100 m va oxirgi 5 s da 30 m yurgan. Yo'lining har qaysi qismidagi va butun yo'ldagi o'rtacha tezliklarni toping.

21-BILET

1. Yorug'likning tezligi. Yorug'likning qaytishi va sinishi.
2. Quvvat va uning birliklari.
3. Toshkent shahri dengiz sathidan 407 m balandlikda joylashgan. Yunusoboddagi televizion minoraning balandligi 385 m. Agar dengiz sathidagi atmosfera bosimi 760 mm simob ustuniga teng bo'lsa, minoraning uchidagi barometr qanday bosimni ko'rsatadi?

22-BILET

1. Linzalar haqida tushuncha.
2. Kinetik energiya.
3. Massasi 2 kg bo'lgan yog'och brusok gorizental joylashgan taxta ustida bikirligi 100 N/m bo'lgan prujina yordamida tortiladi. Ishqalanish koeffitsienti 0,3 ga teng. Bunda prujinaning uzayishini toping.

23-BILET

1. Tovush manbalari. Tovushning turli muhitlarda tarqalishi.
2. Tekis o'zgaruvchan harakatda tezlik, tezlanish, bosib o'tilgan yo'l.

3. Veneraning massasi $4,9 \cdot 10^{24}$ kg, radiusi esa 6100 km bo'lsa, shu planeta uchun birinchi kosmik tezlikni hisoblab chiqing.

24-BILET

1. Tinch holatda gaz va suyuqlikda bosim.
2. Sirpanish ishqalanish. Dumalanish ishqalanish.
3. Massasi 3 kg bo'lgan jism qiya tekislikdan 6 N kuch ta'sirida ko'tarildi. Qiya tekislik balandligi 4 m bo'lsa, uning uzunligi nimaga teng bo'ladi?

25-BILET

1. Shisha prizma yordamida yorug'likning tarkibiy qismlarga ajralishi. Kamalak.
2. Potensial energiya.
3. Massasi 20 g bo'lgan jism 0,2 m radusli aylana bo'ylab 20 m/s tezlik bilan tekis harakatlanmoqda. Markazga intilma kuch qanday?

РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ ШКОЛ С УЗБЕКСКИМ И ДРУГИМИ ЯЗЫКАМИ ОБУЧЕНИЯ

Переводные экзамены в 7 классах школ с узбекским и другими языками обучения проводятся в устной форме. Экзаменационный материал состоит из 25 билетов. В каждом билете по два задания. Конверт с экзаменационными заданиями, подготовленные методическими объединениями, запечатанные и проштампованные директором, вскрываются перед началом экзаменов председателем аттестационной комиссии в присутствии учеников, о чём составляется акт о вскрытии конвертов.

При помощи первого задания проверяются и оцениваются знания учеников по изученным материалам, их умения читать знакомый текст, соблюдая правила произношения и интонации, определяются умения выделить главную мысль прочитанного текста и навыки выражения своих рассуждений на русском языке.

Второе задание связано с проверкой знаний, умений и навыков выразительного чтения наизусть ранее изученного текста, соблюдая правила произношения и интонации, или составление небольшого связного текста в виде ответов на вопросы, с использованием изученных конструкций. При этом проверяются следующие элементы знаний, умений и навыков:

- знания орфоэпических правил;
- умения осознанного выразительного чтения;
- навыки правильного произношения звуков русской речи;
- интонирование отдельных предложений.

Для классов с углубленным изучением русского языка предполагается третье, дополнительное задание, которое связано с проверкой знаний, умений и навыков по изученному языковому материалу, навыков употреблений изученного языкового материала и изученных конструкций в речи, умений составления самостоятельных высказываний по определенной теме.

Объем текста высказываний в 7 классе – 6-7 предложений (45–55 слов).

Проверяются следующие элементы знаний, навыков и умений:

- знание изученного лексического и грамматического материала;
- навыки употребления лексического материала и грамматических форм в типовых конструкциях;
- умение составления связного, логически и грамматически правильно построенного самостоятельного высказывания по данной теме.

За ответы по каждому заданию экзаменационного билета выстав-
ляется отдельный балл, которые в итоге суммируются, и выводятся в
средний общий балл.

Критерии оценки первого задания

№	Критерии оценок	Баллы
1	Грамотное, выразительное чтение, правильное произношение, правильное интонирование предложения, восприятие общего содержания и содержания отдельных деталей прочитанного текста.	5
2	Понимание общего содержания и содержания отдельных частей текста. Беглое и выразительное чтение текста, но при этом допускает некоторые погрешности в произношении.	4
3	При беглом и выразительном чтении допускает ошибки в произношении слов и выражений, не может воспроизвести полного содержания текста. При чтении наизусть допускает интонационные ошибки.	3
4	Допускает большое количество ошибок. Не может построить связанных предложений. Не знает наизусть ни одного стихотворения, но умеет выделить основную мысль прочитанного текста.	2
5	Чтение текста с большим количеством орфоэпических ошибок. Полное не понимание прочитанного текста.	1

Критерии оценки второго задания.

№	Критерии оценок	Баллы
1	Грамотно использовал изученные речевые конструкции. Чётко и выразительно рассказал наизусть стихотворение. Умеет составлять собственные высказывания.	5
2	Допускает ошибки в произношении и при составлении предложений.	4
3	Допускает грамматические, стилистические и орфоэпические ошибки. Затрудняется в чтении стихотворений наизусть.	3
4	Допускает грубые ошибки в устной и письменной речи.	2
5	Бедный словарный запас. Плохо понимает смысл сказанного.	1

БИЛЕТ 1

1. О каких древних памятниках Узбекистана вы знаете?
2. Объясните смысл фразеологизма «голова на плечах».

БИЛЕТ 2

1. Жизнь и творчество А.С. Пушкина. Расскажите наизусть стихотворение «Туча».
2. Расскажите свою автобиографию.

БИЛЕТ 3

1. Расскажите о жизни и творчестве И.А.Крылова. Прочитайте наизусть отрывок из басни «Квартет».
2. Объясните смысл фразеологизма «вставлять палки в колёса».

БИЛЕТ 4

1. Расскажите наизусть отрывок из стихотворения «Школьник» Н.А.Некрасова.
2. Закончите пословицу: «Не выбирай дом – выбирай...»

БИЛЕТ 5

1. Жизнь и творчество И.С.Тургенева.
2. Прочитайте выразительно отрывок из басни И.А.Крылова «Волк и ягнёнок». Какими словами лиса называет ворону?

БИЛЕТ 6

1. Жизнь и творчество Н.А.Некрасова. Какие произведения Н.А.Некрасова вы знаете?
2. Расскажите наизусть стихотворение А.Т.Твардовского «Рассказ танкиста».

БИЛЕТ 7

1. Расскажите о жизни и творчестве А.М. Горького. Назовите настоящее имя писателя.
2. Расскажите наизусть отрывок из «Песни о вешем Олеге» А.С. Пушкина.

БИЛЕТ 8

1. Жизнь и творчество А.Т. Твардовского. Прочитайте наизусть стихотворение «Рассказ танкиста».
2. Расскажите историю возникновения тутового шелкопряда.

БИЛЕТ 9

1. Перескажите рассказ И.С.Тургенева «Муму». Почему Герасим назвал свою собачку «Муму»?
2. Расскажите наизусть стихотворение А.С.Пушкина «Осень». Как описывает осеннюю природу автор?

БИЛЕТ 10

1. Жизнь и творчество М.Ю.Лермонтова. Расскажите наизусть одно из его стихотворений.
2. Объясните смысл фразеологизма «лететь как стрела».

БИЛЕТ 11

1. Коротко перескажите содержание произведения И.С.Тургенева «Муму». Опишите Герасима.

2. Расскажите о великом учёном-энциклопедисте Авиценне. Назовите его полное имя.

БИЛЕТ 12

1. Кратко перескажите содержание произведения И.С.Тургенева «Муму». Почему Герасим утопил собачку?
2. Что означает выражение «козёл отпущения»?

БИЛЕТ 13

1. Жизнь и творчество А.М. Горького. Каких лесных птиц и животных описывает автор в повести «В людях»?
2. Назовите обычаи и праздники Республики Узбекистан.

БИЛЕТ 14

1. Жизнь и творчество А.П.Чехова. Какие события легли в основу рассказа «Хамелеон»?
2. Прочитайте выразительно отрывок из басни И.А.Крылова «Волк и ягненок» (по желанию учащегося). Объясните смысл слов: «У сильного всегда бессильный виноват».

БИЛЕТ 15

1. Расскажите о жизни и творчестве Н. А. Некрасова.
2. Что означает выражение «знать назубок»?

БИЛЕТ 16

1. Жизнь и творчества М.Ю. Лермонтова. Расскажите наизусть отрывок из стихотворения «Бородино».
2. Объясните значение фразеологизма «язык без костей».

БИЛЕТ 17

1. Расскажите наизусть любимое стихотворение.
2. Перечислите обязательные реквизиты автобиографии.

БИЛЕТ 18

1. Расскажите наизусть стихотворение А.Т.Твардовского «Рассказ танкиста».
2. Закончите пословицу: «Не бойся врага умного, а бойся ...». Как ты понимаешь смысл пословицы?

БИЛЕТ 19

1. Перескажите содержание произведения А.П.Чехова «Хамелеон». Почему рассказ так называется?
2. Расскажите наизусть своё любимое стихотворение.

БИЛЕТ 20

1. Жизнь и творчество А.С.Пушкина. Расскажите наизусть стихотворение А.С.Пушкина (на выбор).
2. Закончите пословицу: «Семь раз отмерь, ...». Что она означает?

БИЛЕТ 21

1. Прочитайте текст «Как ласточки предсказывают погоду?» Какие ещё народные приметы об изменении погоды вы знаете?
2. Расскажите свою автобиографию.

БИЛЕТ 22

1. Прочитайте и перескажите текст «Телефакс». Кем и когда был изобретён телефакс?
2. Расскажите о правах и обязанностях учеников.

БИЛЕТ 23

1. Прочитайте и перескажите текст «Как человек поднялся в воздух?». Какие современные летательные транспортные средства ты знаешь?
2. Расскажите о любимом фильме.

БИЛЕТ 24

1. Расскажите о праздниках, которые отмечают во всём мире.
2. Объясните значения фразеологизмов: «От корки до корки», «Из рук вон плохо».

БИЛЕТ 25

1. Прочитайте текст «Авиценна» и перескажите его содержание. Каких ещё учёных Востока вы знаете?
2. Что такое дружба? Расскажите о своём друге (подруге).

**8-SINF
INFORMATIKA**

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinflarida Informatika fanidan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat imtihoni yozma shaklda o‘tkaziladi. Yozma ishlarni bajarish uchun har bir o‘quvchiga bittadan-bilet beriladi. Har bir-biletta uchtdan topshiriq keltirilgan.

Nazorat ishlari ikki guruhga bo‘lingan: 1-guruh nazorat ishlari – zamonaviy kompyuter bilan ta’minlanmagan maktablar uchun, va 2-guruh nazorat ishlari – zamonaviy kompyuter bilan ta’minlangan maktablar uchun. Bunda zamonaviy zamonaviy kompyuter bilan ta’minlangan maktablarda tavsiya etilgan-biletlardagi 3-savol ilovada keltirilgan savollar bilan almashtiriladi.

Topshiriqlar Davlat ta’lim standartlariga hamda 8-sinf informatika fanining modernizatsiyalashgan o‘quv dasturiga to‘la mos holda tuzilgan.

Zamonaviy kompyuter bilan ta’minlanmagan maktablarda o‘quvchilar yozma ishni daftarda bajaradilar. Zamonaviy kompyuter bilan ta’minlangan maktablarda o‘quvchilar yozma ishlardagi birinchi va ikkinchi topshiriqlarni daftarda bajarishadi. Uchinchi amaliy topshiriq kompyuterda bajariladi hamda mos fayllar o‘qituvchi kompyuteriga saqlab qo‘yiladi.

Yozma ish topshiriqlarini bajarish uchun 1 astronomik soat (60 minut) vaqt ajratiladi.

Informatika fani chuqurlashtirib o‘tiladigan maktab (sinf) ma’muriyati informatika fani o‘qituvchilarining metodik birlashmasi qarori bilan 8-sinf o‘quv dasturiga mos ravishda har bir-biletga bittadan qo‘shimcha amaliy topshiriq kiritishi lozim. Shu sababli o‘quvchilarga yechimlarni izohlash uchun qo‘shimcha ravishda yarim astronomik soat (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Yozma ish topshiriqlari o‘quvchilarning quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashni ko‘zda tutadi.

Nazorat ishidagi yozma ish topshiriqlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Topshiriqni yoritilishiga qo‘yiladigan talablar	Ball
Topshiriq to‘liq bajarilgan, ya’ni quyidagi bandlar to‘liq bajarilgan bo‘lsa: 1) topshiriq bajarilishi to‘g‘ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	5

Topshiriqni yoritilishiga qo‘yiladigan talablar	Ball
Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan bittasida kamchilik bo‘lsa: 1) topshiriq bajarilishi to‘g‘ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	4
Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan uchtasida kamchilik bo‘lsa: 1) topshiriq bajarilishi to‘g‘ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (rasmlar, jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	3
Topshiriq o‘quvchi tomonidan tushunilgan, lekin uni hal etishda kerak bo‘ladigan ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalana olmagan. Topshiriqni yechishda kamchiliklar ko‘pligidan to‘g‘ri yechimga erisholmagan, lekin topshiriqni yechishda keltirilgan ayrim to‘g‘ri mulohazalar yuritgan.	2
Topshiriq o‘quvchi tomonidan tushunilgan, bajarishga harakat qilingan, lekin bajarilmagan.	1

Kompyuter bilan ta’minlanmagan maktablar uchun

1-BILET

1. Kompyuter texnikasi bilan bog‘liq xotira qurilmalari haqida ma’lumot bering.

2. $A = "101_2 = 3_{10}"$, $B = "1 \text{ Kbayt} = 1024 \text{ bit}"$, $D = "E_{16} = 1100_2"$ bo‘lganda $A \wedge \neg(B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang.

3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=5$, $B3=4$, $"=ABS(A1*B3-25)+КОПЕНЬ(B3^2)"$.

2-BILET

1. Operatsion sistema tushunchasini izohlang va uning sinflari haqida ma’lumot bering.

2. $\neg(A \vee B) \wedge \neg D$ mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini yozing.

3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=3$, $B3=2$, $"=СТЕПЕНЬ(A1; B3)+A1*B3-B3^2"$.

3-BILET

1. Shaxsiy kompyuterlar haqida ma’lumot bering.

2. $\neg(A \vee D) \wedge \neg B$ mantiqiy ifodaga mos mantiqiy sxema chizing.

3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=7$, $B3=3$, $"=B3*B3 + ЦЕЛОЕ(A1/B3)-СТЕПЕНЬ(A1; B3-1)"$.

4-BILET

1. Protsessor haqida to'liq ma'lumot bering.
2. Operatsion sistemaga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=4$, $B3=3$, “=КОРЕНЬ(B3+1)+КОРЕНЬ(B3+A1)/(B3-A1)”.

5-BILET

1. Doimiy va tezkor xotira haqida to'liq ma'lumot bering.
2. Kompyuterni dasturiy ta'minoti yo'nalishi haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=3$, $B3=4$, “=ДЛСТР(ПСТР(“Маhorat”; B3; A1))+ДЛСТР(ЛЕВСИМВ(“mangu”; B3))”.

6-BILET

1. Kompyuterni kiritish va chiqarish qurilmalari haqida ma'lumot bering.
2. Menu haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=5$, $B3=4$, “=МИН(4*A1; B3*A1; 9; 14)-ЗНАК(B3-A1)*5*B3”.

7-BILET

1. Fayl tushunchasi haqida ma'lumot bering.
2. Operatsion sistemani yuklanishi haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=3$, $B3=2$, “=СУММ(4*A1; B3*A1; 9; 14)+ОСТАТ(B3; A1)”.

8-BILET

1. Asosiy xotira qurilmasi haqida ma'lumot bering.
2. Operatsion sistemaning ichki va tashqi buyruqlari haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=7$, $B3=3$, “=СРЗНАЧ(4*A1; B3*A1; 9; 14)+ МИН(A1; B3; B3-A1)”.

9-BILET

1. Kompyuterni asosiy va qo'shimcha qurilmalari haqida qisqacha ma'lumot bering.
2. Utilitlar va viruslar haqida ma'lumot bering.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=5$, $B3=4$, “=МАКС(4+A1; B3-A1; 9; 14)-B3^2+ABS(A1*3-25)”.

10-BILET

1. EHM birinchi va ikkinchi avlodi, ularning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. $A=“10_2=7_{10}”$, $B=“1 Mb=1024 bit”$, $D=“7_8=111_2”$ bo'lganda $\lceil A \wedge \rceil (B \vee \lceil D \rceil)$ ifoda qiymatini hisoblang.
3. Quyida keltirilgan MS Excelning C2 katakchasidagi formuladagi amallarni ketma-ket bajarib natijani aniqlang: $A1=3$, $B3=4$, “=ЕСЛИ(B3-8>A1+(-15); МИН(A1+B3); B3)+ДЛСТР(“2012-yil”)”.

11-BILET

